



ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

ЎТМИШГА НАЗАР

3 МАХСУС СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ
СПЕЦИАЛЬНЫЙ НОМЕР 3

LOOK TO THE PAST
SPECIAL ISSUE 3



ТОШКЕНТ-2022

Бош мухаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Муртазаева Рахбар Хамидовна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Бош мухаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

Джураева Нилуфар Далибаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори,
профессор, академик,
Ўзбекистон Миллий университети

Бобожонова Дилором Бобожонова
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари
университети

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Кебадзе Мадонна
тарих фанлари доктори,
Телави давлат университети

Аширов Адхам Азимбаевич
тарих фанлари доктори, профессор,
ЎзР ФА Тарих институти

Агзамова Гулчеҳра Азизовна
тарих фанлари доктори, профессор,
ЎзР ФА Тарих институти

Бурдиашвили Майя
тарих фанлари доктори,
Телави давлат университети

Кожакеева Ляззат Темировна
тарих фанлари доктори, доцент,
Хотин-қизлар давлат педагогика
университети

Ульжаева Шохистахон Мамажоновна
тарих фанлари доктори,
Тошкент кимё - технология институти

Дорошенко Татьяна Ивановна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Бабаджанова Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Ширванова Тарана Амирага кызы
тарих фанлари номзоди, доцент,
Азербайджон давлат
иқтисодиёт университети

Гофоров Шокир Сафарович
тарих фанлари доктори, профессор
Самарқанд давлат университети

Эргашева Юлдуз Алимовна
Тарих фанлари доктори, профессор,
Қариши муҳандислик-иқтисодиёт
институти

Теймураз Ахалмосулишвили
тарих фанлари номзоди, профессор,
Телави давлат университети

Халикова Рахбар Эргашевна
тарих фанлари доктори, профессор,
Тошкент давлат техника университети

Ишанходжаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Эшов Боходир Жўраевич
тарих фанлари доктори, профессор
Қариши давлат университети

Махкамova Надира Раҳмановна
тарих фанлари доктори, профессор,
Тошкент ахборот технологиялари
университети

Абдуллаева Яхшибека Атамуратовна
тарих фанлари доктори, доцент,
Нукус давлат педагогика институти

Мустафаева Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари доктори
Ўзбекистон Фанлар академияси

Ерметов Аваз Абдуллаевич
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Джоробекова Айнуэр Эшимбековна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Қозоғистон дипломатия академияси

Раҳмонкулова Зумрад Бойхуразовна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Расулов Абдуллажон Нуридинович
тарих фанлари доктори, профессор
Наманган давлат университети

Ковалев Борис Николаевич
тарих фанлари доктори, профессор
Санкт-Петербургда Тарих институти

Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Ауанасова Алима Мусировна
тарих фанлари доктори, профессор,
Қозоғистон давлат тарихи институти

Бегалинова Калимаш Капсамаровна
фалсафа фанлари доктори, профессор,
Қозоғистон Миллий университети

Хайдаров Муродилла Махмудалиевич
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Алнева Лале
тарих фанлари доктори,
Озарбайжон давлат университети

Санпова Камола Давляталиевна
тарих фанлари доктори, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исмаилова Алмаз
тарих фанлари доктори,
Догистон мустақил университети

Иноятова Диларам Маниглиевна
Тарих фанлари доктори (DSc)
Ўзбекистон Миллий университети

Одилов Аброр Анварович
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Толибоева Нодира Одилжоновна
Тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Ўзбекистон жаҳон
тиллари университети

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

1. Раҳбархон Муртазаева ЗАМОНАВИЙ ЎЗБЕКИСТОН ШАРОИТИДА ЁШЛАРГА ОИД ДАВЛАТ СИЁСАТИ.....	6
2. Дилором Бобожонова ЎЗБЕК ОИЛАЛАРИДА ТИББИЙ МАДАНИЯТНИ ОШИРИШ, СОҒЛОМ ТУРМУШ ТАРЗИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ МУАММОЛАРИ.....	17
3. Баҳодир Эшов ҚАДИМГИ ШАҲАРЛАР ШАКЛЛАНИШИНИНГ ТАҲЛИЛЛАРИ.....	26
4. Зумрад Раҳмонкулова МАҲМУД АМИН АФАНДИ “ИСТАНБУЛДАН ЎРТА ОСИЁГА САЁҲАТ”.....	34
5. Манзура Аминова ИБН ХОЛДУН ИЛМИЙ МЕРОСИНING ЗАМОНАВИЙ АҲАМИЯТИ.....	41
6. Тўлқин Ахмедов ТУРКИСТОНДА БИРИНЧИ РУС-ТУЗЕМ МАКТАБИ: МАЪМУРИЙ ЭҲТИЁЖ ЁКИ МАДАНИЙ ЯҚИНЛАШУВ ЗАРУРИЯТИ?.....	48
7. Мансур Бойсариев ОЗАРБАЙЖОН ДИАСПОРАСИ ВАКИЛЛАРИНИНГ ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМ-ФАНИ ТАРАҚҚИЁТИГА ҚЎШГАН ҲИССАСИ.....	56
8. Фируза Жуманиязова ИККИНЧИ ЖАҲОН УРУШИ ЙИЛЛАРИДА ХОРАЗМ ХОТИН-ҚИЗЛАРИНИНГ ИЖТИМОЙ ҲАЁТДАГИ ФАОЛЛИГИНИНГ ДАВРИЙ НАШРЛАРДА АКС ЭТТИРИЛИШИ (1941–1945 йиллар).....	64
9. Мухаммаджон Исамиддинов АНТИК ДАВР ЁЗМА МАНБАЛАРИДА САМАРҚАНД ТАРИХИНИНГ ЁРИТИЛИШИ.....	70
10. Бахыт Кошанов, Хакимбай Отегенов, Гулчехра Ержанова ҚОРАҚАЛПОҒИСТОН ТАРИХШУНОСЛИГИНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ.....	79
11. Shohruhbek Mamadaliyev TURKISTON SHAHARALARIDA OCHLARGA YORDAM KOMISSIYASI FAOLIYATI TARIXIDAN.....	87
12. Gulnora Maxkamova XX ASR SAMARQAND KASHTALARI: XILLARI, USLUBLARI, ORNAMENT REPERTUARI (SAMARQAND DAVLAT MUZEYI NAMUNALARI MISOLIDA).....	93
13. Уктамжон Мансуров VI – XI АСРЛАР СУҒД ЁЗМА ЁДГОРЛИКЛАРИНИНГ ТАРИХИЙ МАНБА СИФАТИДА ЎРГАНИЛИШИ.....	100
14. Шоназар Матякубов XVI- XVIII- АСРЛАРДА ХИВА ХОНЛИГИ ҲУНАРМАНДЧИЛИГИНИНГ АСОСИЙ СОҲАЛАРИДАН БИРИ-КУЛОЛЧИЛИК ТУРИ ТАВСИФЛАРИ.....	105

15. Отабек Махмудов «МИЛЛИЙ ТАРИХ» ВА «ТАРИХ ТАЪЛИМИ»ДА «ЖАҲОН ТАРИХИ»НИНГ АҲАМИЯТИ (лотин тилли тарихий манбалар ва замонавий ўзбек илмий адабиётининг қиёсий таҳлили медиевистик талқинда).....	109
16. Sayyora Mirsoatova, Aхrorbek Muxsidinov O‘ZBEKISTONDA MEZOLIT DAVRI YODGORLIKLARINING O‘RGANILISHI HAQIDA.....	122
17. Зухра Ражабова ЖАЛОЛИДДИН МАНГУБЕРДИ СИЙМОСИННИНГ ЁШЛАР МАЪНАВИЯТИНИ ЮКСАЛТИРИШДАГИ АҲАМИЯТИ.....	128
18. Мафтуна Рузикулова ФАРҶОНА ВОДИЙСИНИНГ МЕЛИОРАЦИЯ ВА ИРРИГАЦИЯ ИШЛАРИ ТАРИХИДАН (1950 – 1970).....	134
19. Хасанбой Рахматиллаев ҚАДИМГИ ВА ИЛК ЎРТА АСРЛАР ДАВРИ ЭТНИК ЖАРАЁНЛАРИНИНГ ЎРГАНИЛИШИ МУАММОЛАРИ ҲАҚИДА.....	139
20. Lutfiya Salomova AVSTRALIYA MILLIY ARXIVI FAOLIYATI HAQIDA.....	144
21. Наргиза Сейтимбетова ҚОРАҚАЛПОҶИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ҚОЗОҚ МИЛЛИЙ МАДАНИЙ МАРКАЗИ.....	148
22. Shaxnoza Tursunova O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING BENILYUKS DAVLATLARI BILAN XALQARO MUNOSABATLARINI RETROSPEKTIV TAHLILINING AYRIM JIHATLARI.....	156
23. Икромжон Умаров КЎҲИТАНГТОҒ ҚИШЛОҚЛАРИНИНГ ҲУДУД БЎЙЛАБ ЖОЙЛАШУВ ХУСУСИЯТЛАРИ ВА АҲОЛИНИНГ ЭТНИК ТАРКИБИ.....	161
24. Ма’мура Umarxodjayeva, Zilola Shodmonxo`jayeva, Nodira Xasanova O‘ZBEKISTON TARIXI DAVLAT MUZEYINING NOYOB XAZINASIDAN.....	174
25. Санъат Худайбергенов ЎЗБЕКИСТОННИНГ ЯНГИ ТАРАҚҚИЁТ БОСҚИЧИДА ХОРАЗМ ВИЛОЯТИ ОЛИЙ ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИНИНГ ХОРИЖИЙ ҲАМКОРЛИК МАСАЛАЛАРИ.....	178
26. Ҳабиба Ҳасанова 1917-1924 ЙИЛЛАРДА ТУРКИСТОН МИНТАҚАСИДА БОСМАХОНАЛАРНИНГ ТЕХНИК ҲОЛАТИДАГИ ЎЗГАРИШЛАР.....	186
27. Ра’но Qodirova 1936-1937 YILLARDA O'ZBEKISTON SSR MAKTABLARIDA TARIX FANINING O‘RGANILISHI (M.Asimov hisobot materiallari asosida).....	192


28. Қосим Қосимов ШАРҚИЙ БУХОРОДА ҚИЗИЛ АРМИЯГА ҚАРШИ МИЛЛИЙ ОЗОДЛИК ҲАРАКАТЛАРИ.....	196
29. Ислом Қаршиев МУТАФАККИР СЎФИ ОЛЛОЁР ҚАРАШЛАРИДА ТАСАВВУФИЙ ҒОЯЛАР ТАҲЛИЛИ.....	203
30. Гулжаҳон Шайдуллаева ХАРАППА МАДАНИЯТИ ЁДГОРЛИКЛАРИДАН ТОПИЛГАН ОКС ЦИВИЛИЗАЦИЯСИГА ХОС БЎЛГАН МОДДИЙ МАНБАЛАР ТАҲЛИЛИДА МАДАНИЙ ВА САВДО АЛОҚАЛАРИ.....	209
31. Fotima Shirinova, Zumrad Kosimova XX ASRNING 20-30-YILLARIDA SOVET HOKIMIYATINING O'ZBEKISTONDA YURITGAN SIYOSATI, UNING MONIYATI VA OQIBATLARI. SIYOSIY QATAG'ONLIK.....	222
32. Юлдаш Юлдашев ХОРАЗМ ВИЛОЯТИ ДАВЛАТ АРХИВИ 555-ФОНДИНИНГ АРХИВ МАНБАШУНОСЛИГИ ТАҲЛИЛИ.....	230
33. Акмал Якубов ХИВА ХОНЛИГИНИНГ ТАШҚИ САВДО МУНОСАБАТЛАРИ (Дашти қипчоқ мисолида).....	237
34. Акмал Якубов ХИВА ХОНЛИГИ ВА ҚОЗОҚ ЖУЗЛАРИ (ўтроқ ва кўчманчилар ўзаро алоқларининг негизлари).....	246
35. Лазизахон Алиджанова ДИНИЙ ТАЪЛИМОТЛАРДА ТИББИЁТГА ОИД ИЖТИМОИЙ ҚОИДАЛАР ТАҲЛИЛИ.....	256
36. Дилрабо Қурбанова ЗАМОНАВИЙ ЎЗБЕКИСТОНДА ГЕНДЕР ТЕНГЛИК СИЁСАТИ.....	264
37. Камола Саипова УРУШ ДАВРИДАГИ ЎЗБЕК ХАЛҚИНИНГ БАҒРИКЕНГЛИК КЎРСАТИШИ.....	274
38. Аҳадулла Рахматуллаев ТУРКИСТОНДАГИ МАҲАЛЛИЙ ЎЛКАШУНОС ВА КОЛЛЕКЦИОНЕРЛАР ФАОЛИЯТИ.....	280
39. Азамат Ктайбеков ҚОРАҚАЛПОҒИСТОНДА ИЖТИМОИЙ-ИҚТИСОДИЙ ЎЗГАРИШЛАР (2000-2016).....	288
40. Гулнора Худойберганава “АСКЕТИЗМ” ТУШУНЧАСИ ВА ДИНЛАРДА АСКЕТИК АМАЛИЁТЛАРГА МУНОСАБАТНИНГ ТАҲЛИЛИ.....	293



Ma'mura Karimbayevna Umarxodjayeva,
mustaqil izlanuvchi,
Kamoliddin Behzod nomidagi
Milliy rassomlik va dizayn instituti
Zilola Xasan qizi Shodmonxo`jayeva,
Nodira A`zam qizi Xasanova
2-kurs magistrantlar

O`ZBEKISTON TARIXI DAVLAT MUZEYINING NOYOB XAZINASIDAN

For citation: Ma'mura K. Umarchojaeva, Zilola Kh. Shodmonkhjoeva, Nodira A. Khasanova,
FROM THE UNIQUE TREASURE OF THE STATE HISTORICAL MUSEUM OF UZBEKISTAN.
Look to the past. 2022, Special issue 3, pp.174-177

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.7485330>

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada O`zbekiston tarixi davlat muzeyi kolleksiyasidan joy olgan noyob eksponatlar haqida so`z boradi. Ushbu eksponatlar tarixi, badiiy-estetik, funksional xususiyatlariga to`xtalib o`tiladi, hamda san`atshunoslik ilmi nuqtai nazaridan ta`riflanadi. Shuningdek, O`zbekiston tarixi davlat muzeyining boy merosini chuqurroq o`rganish, yurtimiz necha asrlar davomida madaniyatlar tutashgan o`choq bo`lganligiga guvohlik berishi asoslangan. Ana shu merosni to`liq o`rganish, uni ilmiy jihatdan yanada boyitish hamda restavratsiya masalalari bugungi kunda hali hamon dolzarblik kasb etayotganligi ta`kidlangan.

Kalit so`zlar: O`zbekiston, tarix, davlat, muzey, kolleksiya, eksponat, meros, madaniyat.

Маъмура Каримбаевна Умарходжаева,
самостоятельный соискатель
Национальный институт художеств и дизайна
имени Камолиддина Бехзода
Зилола Хасана кизи Шодмонходжаева,
Нодира Азам кизи Хасанова
Магистранты 2 курса

ИЗ УНИКАЛЬНОГО СОКРОВИЩА ГОСУДАРСТВЕННОГО ИСТОРИЧЕСКОГО МУЗЕЯ УЗБЕКИСТАНА

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассказывается об экспонатах из собрания Государственного музея истории Узбекистана. Обсуждаются и описываются история, художественно-эстетические и функциональные особенности этих исторических экспонатов с искусствоведческой точки

зрения. Также в его основе лежит более глубокое изучение богатого наследия Государственного музея истории Узбекистана, что свидетельствует о том, как много веков наша страна была местом встречи культур. Отмечено, что вопросы всестороннего изучения этого наследия, его дальнейшего научного обогащения и реставрации приобретают актуальность и сегодня.

Ключевые слова: Узбекистан, история, государство, музей, коллекция, экспонат, наследие, культура.

Ma'mura K. Umarkhojaeva,
independent researcher,
National Institute arts and design named
after Kamoliddin Behzod
Zilola Kh. Shodmonkhojaeva,
Nodira A. Khasanova
masters 2 courses

FROM THE UNIQUE TREASURE OF THE STATE HISTORICAL MUSEUM OF UZBEKISTAN

ABSTRACT

This article talks about the exhibits from the collection of the State Museum of History of Uzbekistan. The history, artistic-aesthetic, and functional features of these historical exhibits are discussed and described from the point of view of art history. It is also based on a deeper study of the rich heritage of the State Museum of the History of Uzbekistan, which indicates how many centuries our country has been a meeting place for cultures. It is noted that the issues of a comprehensive study of this heritage, its further scientific enrichment and restoration are becoming relevant today.

Index Terms: Uzbekistan, history, state, museum, collection, exhibit, heritage, culture.

1. Dolzarbligi:

Jahonda ilk muzeylar paydo bo'lgandan to hozirgi zamonaviy muzeylar holiga kelguniga qadar necha ming yillik tarixni bosib o'tdi. O'zida noyob, qimmatli, tarixiy predmetlarni jamlagan bugungi kun muzeylari nafaqat o'zining boy kolleksiyasiga ega bo'lish balki uni nomoyish etish masalasi kundan kunga dolzarblik kasb etmoqda. Har bir muzey o'zining noyob eksponatlari bilan dong taratadi. Muzey o'z tashrif buyuruvchilariga mangulik pardasi orqali insoniyat moddiy va ma'naviy madaniyatining eng yorqin joylarini namoyish etadi. O'zbekiston muzeylari ichida salmoqli kolleksiyaga ega O'zbekiston Tarixi Davlat muzeyi sanaladi. Bugungi kunda muzey zaxirasida 250 mingga yaqin tarixiy, san'at va madaniyat yodgorliklar joy olgan. Bundan tashqari, muzeyda O'zbekiston hamda O'rta Osiyo xalqlariga tegishli moddiy va ma'naviy obyektlarni saqlash va o'rganish bo'yicha yirik ilmiy tekshirish markazi mavjud. Mazkur izlanish orqali muzey eksponatlarini yanada chuqurroq o'rganishga harakat qilamiz. Vazirlar Mahkamasining 1992-yil 21-aprel qaroriga muvofiq O'zbekiston tarixi Davlat muzeyi qayta tashkil etildi. Mohiyat-e'tibori bilan qaralganda, tom ma'nodagi zamonaviy va milliy muzeyga aynan shu sanada asos solingan edi. Prezident Islom Karimovning «Muzeylar faoliyatini tubdan yaxshilash va takomillashtirish to'g'risida» gi Farmoni (1998-yil 12-yanvar) esa muzeylarimiz rivojidan katta burilish yasadi. Hozirgi kunda O'zbekiston tarixi Davlat muzeyi eng yirik ilmiy-ma'rifiy markazlardan hisoblanib, uning jamg'armasida 250 mingga yaqin eksponat mavjud. Ular orasida numizmatika, arxeologiya, tangashunoslik va etnografiyaga oid ko'plab qimmatli jamlamalar bor.

2. Metodlar:

Ushbu maqola tarixiylik, ilmiylik va huduiy yondoshuvlar singari tarixiy metodlar asosida yaratilgan, unda O'zbekiston tarixi davlat muzeyining noyob eksponatlari o'rganilgan.

3. Tadqiqot natijalari:

O'zbekiston tarixi Davlat muzeyining yangi ekspozitsiyasi O'zbekiston hududida tarixiy-madaniy jarayonlarning eng qadimgi davrlardan boshlab hozirga qadar bo'lgan taraqqiyotini

ashyoviy dalillar va tasviriy vositalar orqali namoyish etishga qaratilgandir. Umumiy sathi qariyb ikki ming kvadrat metr bo'lgan binoning uchinchi va to'rtinchi qavatini egallagan mazkur ekspozitsiyada o'n mingga yaqin eksponat joylashgan. Ularda o'zbek davlatchiligining shakllanishi tarixi, o'zbek xalqining boy an'analari va madaniyati ifoda etilgan.

Muзейning qadimgi davrga tegishli noyob eksponatlaridan biri bu tosh taroshlikka oid ikki ilon tasvirli tosh haykaldir (material: xrizotil; texnika: o'ymakorlik, arralash, burg'ulash, keyin sirtini parlatish; razmer: 27x24 sm Soh. Farg'ona viloyati. Miloddan avvalgi II ming yillikning oxiri). Predmet materiali xrizotil bo'lib, mazkur material "serpantinlar guruhining tolali minerali butun dunyo bo'ylab Asbestosning asosiy manbai hisoblanadi. Xrizotil o'zining kristall quvurli tolalari bilan ajralib turadi, issiqlikka chidamli matolardan biri sanaladi".

Ekspонат shakli taqasimon bo'lib, buyum tanalari o'zaro tutashgan, boshlari esa bir-biriga qaragan ikkita ilonning figuralaridan hosil bo'ladi. Haykal katta hajmli, tartibsiz shakldagi chuqurchalar bilan bezalgan. Ilonlarning ko'zlari, tishlari va burun teshiklari uchun teshiklar chuqur yumaloq qilingan. Quloqlar va peshonalariga yarim doira shaklidagi naqshlar ishlangan. Chuqurchalarning pastki qismlari gipsli ohak bilan to'ldirilgan bo'lib, unga toshli bezaklar (kvars va boshqalar) mustahkamlangan. Mazkur predmet funksional tumor vazifasini bajargani taxmin qilinadi.

Muзей kolleksiyasining eng noyob eksponatlaridan biri Buddha rohiblar bilan haykalidir (material: organogen ohaktosh; texnika: o'ymakorlik; hajmi: B-75sm; K-63sm; T-28sm. Fayoztepa ibodatxonasi. Surxondaryo viloyati. Mil.avv. I-II asrlar). Surxondaryo viloyatida mavjud bo'lgan buddaviylik dini ta'sirida ishlangan namunalaridan biri. Ekspонат organogen (dengiz organizmlaridan tashkil topgan ohaktosh turi) ohaktoshdan ishlanganiga qaramay, bugungi kunga qadar yaxshi saqlanib qolgan. Buddha yopinchiqda fikrlash pozasida (dxayana-mudra – buddizm va hinduiylikda qo'llarning ramziy joylashuvi: meditatsiyadagi qo'l holati) holda muqaddas bodxi daraxti ("Bodxi daraxti buddizmda – Uruvella bog'idagi afsonaviy daraxt, uning ostida meditatsiya qilgan shahzoda Gautama ma'rifatga erishdi va Buddaga aylandi.") tagida, ikki chetida ikki rohib bilan tasvirlangan. Umumiy kompozitsiya kapitelli ustunlarga tayangan uchli arka ichiga joylashtirilgan. Buddaning sochlari ushnisha (Budda boshining tepasida joylashgan uch o'lchamli oval) qismiga yig'ilgan. Mazkur namuna ko'plab xorijiy olimlar qiziqishini uyg'otib kelmoqda.

Navbatdagi muзей eksponati haykaldan fragment (material: albastr; texnika: qolipda quyilgan, o'yma naqsh; diametri – 16,5 sm. Fayoztepa ibodatxonasi. Surxondaryo vil. Mil. I-II asrlar). Gardishda erkak kishi yuzi tasvirlangan. Ingichka peshonasi ustidagi sochlari o'rtadan ochilgan, burni to'g'ri, og'zi biroz ochiq. Uzun mo'ylovlari qalin soqolga tutashib ketadi. Ko'zlari to'g'riga tik qaraydi. Buddaviylik ibodatxonasidan topilgan mazkur predmet antik davr san'ati tipajlarini eslatadi.

Muзейdagi haykaltaroshlik namunalaridan biri ushbu plita (Plitka. Gorelyef. material: To'q yashil tosh; texnika: o'ymakor naqsh, chiziqlar tortilgan, silliqlangan, parmalangan; razmer: B. – 9 sm; E. – 9,7 sm. Topilma joyi noma'lum. Mil.III – IV asrlar.) o'zida mifologik syujetni nomoyon etadi. Plitka haykaltaroshlikning gorelyef (fr. haut-relief – baland relyef) – haykaltarosh qavariq relyefning bir turi bo'lib, unda tasvir tasvirlangan qismlar hajmining yarmidan ko'pi fon tekisligidan yuqoriga chiqadi) usulida bajarilgan. Plitka arkasimon, ikki yarusli. Yuqori yarusda ikkita qanotli jonzotlarning belgacha tasviri ishlangan. Kompozitsiyaning chap qismida ayol qo'lida kosa ushlab turgan holatda, kosaga esa erkak obrazining o'ng qo'li cho'zilgan. Demak, rassom butun dunyo san'atida doimo murojaat etiladigan farishta, qanotli ayol obrazida yuzlangan. Plitkaning pastki yarusida yozuv tirnab yozilgan.

Muзей kolleksiyasidagi navbatdagi ekspонат bu – qozon (bronza, quyma, kavsharlangan. B. – 32,4 sm; D. – 64 sm. Tuyachi. Farg'ona vodiysi. Mil.av. VI – V asrlar) bo'lib, u muзей ekspozitsiyada salmoqli o'ringa ega. Qozon to'rtta halqasimon dastakli, silidrik korpusli. Dastaklar orasida yurib ketayotgan echki shakllari ishlangan. Bilamizki, echki - kuch, jonlilik lekin ayni paytda ayyorlik, insondagi buzg'unchi tendentsiyalarni ham ifodalaydi. Xitoy va Hindistonda echki ijobiy erkak ramzi hisoblanadi. Ko'p xalqlarda echki ko'pincha qurbonlik uchun ishlatiladi. Shu sabab qozonda jonlilik, qurbonlik ramzi sifatida echking shartli shakli berilgan deb taxmin qilinadi. Qozondagi kichik elementlar qalaylash orqali asosga birlashtirilgan. Mazkur bronza qozon 1939-yilda Farg'ona vodiysida qurilgan eng yirik gidrotexnika inshootlaridan biri Katta Farg'ona kanali

qurilishida topilgan. Bilamizki mazkur kanal 1939-yil avgustida xalq hashari bilan juda qisqa muddatda (45 kunda) qurib bitkazilgan. Ekspонат yaxshi holatda muzeyning doimiy ekspozitsiyasidan joy olgan.

Yurtimiz tarixiga oid qimmatli manbalarni oʻzida jamlagan Oʻzbekiston tarixi davlat muzeyining navbatdagi tarixiy obyekti bu ostondondir. Muzey kolleksiyasi turli koʻrinishdagi ostadonlar namunasiga boy. Muzey ekspozitsiyasidagi ossuariylar milodning boshi hamda ilk oʻrta asrlarga tegishli (material: loy, yopishtirish, qolip, pishirilgan; razmer: U. – 58 sm; E. – 31 sm; B. – 46,2 sm. Alameddin. Qirgʻiziston. VI-VII asrlar). Tarixdan maʼlum boʻlishicha, “oʻlgan insonni dafn etishda ossuariylardan foydalanish oʻrta asrlarga qadar Xorazm, Soʻgʻd va Yettisuvda keng tarqalgan”. Ular oʻrta asrlarga qadar shakllangan madaniy simbiolarni oʻziga mujassamlashtirdi. Koʻrib chiqilayotgan ostadon toʻrt nishabli qopqoqli toʻgʻri toʻrtburchak quti shaklida. Korpus gulli va geometrik naqsh bilan qoplangan. Chekka nishablarda antropomorf jonzot tasviri mavjud.

4. Xulosalar:

Xulosa qilib aytganda, Oʻzbekiston tarixi davlat muzeyining boy merosini chuqurroq oʻrganar ekanmiz, yurtimiz necha asrlar davomida madaniyatlar tutashgan oʻchogʻ boʻlganligiga guvoh boʻlamiz. Ana shu merosni toʻliq oʻrganish, uni ilmiy jihatdan yanada boyitish hamda restavratsiya masalalari bugungi kunda hali hamon dolzarflik kasb etmoqda.

Iqtiboslar/Сноски/References:

1. Научно-технический энциклопедический словарь.
2. Бодхгая Архивная копия от 20 августа 2020 на Wayback Machine Энциклопедия «Вокруг Света».
3. Партина А.С. Горельеф // Архитектурные термины. Иллюстрированный словарь. – М.: «Стройиздат», 1994. – С. 55. – 208 с.
4. Ўзбекистон тарихи давлат музейи // <https://meros.uz/uzc/object/ozbekiston-tarixi-davlat-muzeyi>
5. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Ўзбекистон тарихи давлат музейининг низомини тасдиқлаш тўғрисида” қарори , 12.12.1994 йилдаги 595-сон
6. Ўзбекистон тарихи давлат музейи // <https://qomus.info/encyclopedia/cat-ou/ozbekiston-tarixi-davlat-muzeyi-uz/>
7. Раҳмонова Н. Музей – тарих ва келажакни боғловчи йўл// https://uza.uz/uz/posts/muzey-tarix-va-kelazhakni-boglovchi-yol_267631

ЎТМИШГА НАЗАР

3 МАХСУС СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ
СПЕЦИАЛЬНЫЙ НОМЕР 3

LOOK TO THE PAST
SPECIAL ISSUE 3

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000